

Eshbolta QOBULOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, tarix fanlari doktori, professor

E-mail: eshbolta_qabulov@tues.uz

Tel: +99891-966-00-44

TerDU professori, t.f.d. S.Tursunov taqrizi asosida

RELIGION IN THE POLITICAL AND SOCIAL LIFE OF AMIR TIMUR STATE

Annotation

Considered one of the most important figures in the history of the middle ages, from the way in which Amir Temur ruled the state, his activities in the military sphere, the processes associated with the economic and social life of the country are also considered important topics not only for researchers, but also for the broad readership. This article explored the direct relationship of the activities of Amir Temur with the religion of Islam, the works of historians who were contemporary with Amir Temur, and the scientific research of researchers of the later period.

Keywords: Muhammad Taragai, Abdullah Kutb masolium, Shaykh Shamsiddin Kulol, Shaykh Said Kulol, Shaykh Zayniddin Abubakr at-Tayabadi.

РЕЛИГИЯ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ ГОСУДАРСТВА АМИРА ТИМУРА

Аннотация

От того, как Амир Тимур, считающийся одной из важнейших фигур в средневековой истории, управлял государством, до его деятельности в военной сфере, процессы, связанные с экономической и социальной жизнью страны, также являются важными темами не только для исследователей, но и для широкого круга читателей. В этой статье была изучена непосредственная связь деятельности Амира Тимура с исламской религией на основе трудов историков, которые были современниками Амира Тимура, и научных исследований исследователей более позднего периода.

Ключевые слова: Мухаммад Тарагай, Абдулла Кутб медресе, Шейх Шамсиддин Кулал, Шейх Саид Кулал, Шейх Зайниддин Абубакр Ат-тайабади.

AMIR TEMUR DAVLATI SIYOSIY VA IJTIMOYIY HAYOTIDA DIN

Annotatsiya

O'rta asrlar tarixidagi eng muhim shaxslardan biri hisoblangan Amir Temurning davlatni qay yo'sinda boshqarganidan tortib, harbiy sohadagi faoliyati, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti bilan bog'liq jarayonlar ham nafaqat tadqiqotchilar uchun, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham muhim mavzulardan sanaladi. Ushbu maqolada Amir Temur faoliyatining islom dini bilan bevosita aloqasi, Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan tarixchilarning asarlari va keyinga davr tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asnosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Muhammad Tarag'ay, Abdulla Qutb madrasasi, Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Said Kulol, Shayx Zayniddin Abubakr at-Tayobodiy.

Kirish. O'zbek xalqi tarixidagi birinchi renessans mo'g'ullar istilosi oqibatida tapnazzulga yuz tutdi. Hududda ijod qilgan ilm ahli dunyoning turli tomonlariga bosh olib ketishga majbur bo'lishdi. O'z navbatida davlat siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan islom dini o'z maqomidan butunlay mahrum bo'ldi. XIV asrda kubraviya tariqati shayxlari ta'sirida avval mo'g'ul xoni Qozonxon, so'ngra chig'atoyi Tormasharinning islom dinini qabul qilishi islom dinining mavqei tiklanganidan dalolat berar edi.

XIV asrning 70-yillarida Amir Temur davlatining vujudga kelishi natijasida mo'g'ullar asoratiga barham berilib, hudud iqtisodiyoti rivoj topib, aholining turmush darajasi yaxshilanib bordi. Bu o'z navbatida siyosiy hayotda islom dinining mavqeini yana tiklash imkonini berdi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Amir Temur shaxs sifatida islom ta'limotiga e'tiqodi baland bo'lgan inson sifatida tarixda ma'lum.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temur Movarounnahr taxtiga o'tirgandan so'ng, amalga oshirgan muhim ishlaridan biri ilm fan rivojiga katta e'tibor berganligidir. Uning dastlabki farmonlaridan biri madrasalar va ularning o'quvchilarini moddiy jihatdan ta'minlab, stipendiyalarini oshirishdir. Muiniddin Natanziy o'zining, "Muntaxab ut – Tavorixi Muiniy" asarida shunday yozadi: "Imomlar, islom ulamolari, qozilar va ulug' shayxlarga bo'lgan hurmat-e'tiborini shu darajaga yetkazadiki, ilmu-fan ravnaq topib, talabalarning nafaqasi lozim bo'lgan miqdordan ham ko'proq qilib belgilandi. Buning natijasida bir necha ming nafar turli ilmlarni egallagan sohibkamollar, sanoqqa sig'maydigan darajada ko'p qalbi daryo is'tedod egalari uning ulug'vor xonadoni saxovati hadyalari nuridan zamona chehrasidan zohir bo'ldilar" [1].

Ibn Arabshoh yozishicha Temur yoshligida so'fiylarga nisbatan sabr, olijanoblik va ehtirom ko'rsatganki, ular ham o'z navbatida -Tarag'ayga shunday munosabatda bo'lishgan. Amir Temurning dinu islomga bo'lgan munosabati ko'plab din peshvolari tomonidan uning boshqaruv siyosatini qo'llashiga sabab bo'lgan.

Sohibqironning yashash tamoyili "Rosti-rosti"(Haqiqat adolatda)bo'lib, bu so'z o'yib yozilgan uzukni piri Zayniddin Toyobodiy sovg'a qilgan. Amir Temur har gal biron-bir ish yoki harbiy yurishga chiqishdan oldin piringning duosini olgan. Davlat boshqaruvida piringning maslahati bilan to'rt narsaga amal qilgan: "Abulmansur Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1)(o'zing bilan) kenga; 2)(boshqalar bilan) mashvaratu maslahat ayla; 3) hushyorligu mulohazakorlik bilan qat'iy qaror chiqarish; 4) ehtiyotkor bo'l[2, 13.14].

Ma'lumki Temur va uning vorislari davrida ruhoniylar mulki daxlsiz hisoblangan. Oddiy dunyoviy odam uchun yomon tugaydigan ish "tangri kishisi" uchun murakkablik tug'dirmas edi. Temurning ruhoniylar vakillari bilan bunday munosabatlari, devona Bobo Sangi bilan uchrashuvi diqqatga sazovor. Bu voqea 1381 yilda Xurosonni zabt etishda ro'y bergan. Andxunnda Bobo Sangi hayvon ko'ksidan olingan bir bo'lak go'shtni Temur oldiga tashlaydi. Bu holat "Zafarnoma"da quyidagicha bayon qilingan: "Hazrat sohibqiron avji azimat va davlat bilan suvdin o'tub, Andxudqa yetti. Va g'oyat sidq va ixlosdin Bob Sangukim, avliyolardan erdi, tavofig'a bordi. Va Bobo Sangu, jazaba va holatikim, anda bor erdi, bir qo'yning to'shini hazrat qoshig'a tashladi. Ul hazrat / shu kun tutub, to'shini olib dedikim, "Xurosonkim, yer yuzining to'shi turur, bizga Tangri bergusi turur" [3, 80]. Temur buni tangri Xurosonni yer ko'ksidan bir parchani unga uzatayapti, deb e'lon qiladi. Bunday holatdan chiqishning asosiy sababi aniq,

dinning obro‘-e‘tiborini hurmat qilgan Temur, Bobo Sanginni avliyo sanagani uchun, bu holni yaxshi belgi deb e‘lon qilgan. Nozik taktik bo‘lgan Temur bu vaziyatdan chiroyli foydalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiylik, xronologik yondashuv, qiyosiy-tahlil kabi tarixiy metodlardan foydalanildi. Maqolada o‘rta asr tarixchilarining bevosita kuzatishlar natijasida bayon etilgan Amir Temurning islom dinini qanchalik uluhlagaligiga doir muhim ma‘lumotlar mavjud.

Tahlil va natijalar. Amir Temur Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani)da 1336 yil 9 aprel kuni dunyoga keldi. Uning kindik qoni to‘kilgan joy qadimda Xushjuvi obigar, ya‘ni Zilol suvli chashma nomi bilan yuritilgan. Mazkur hayotbaxsh chashma suvlari tufayli bu maskan atrofida aholi to‘planib, qishloq qad ko‘targan, keyinchalik bu joy Xo‘ja Ilg‘or nomi bilan yuritila boshlagan.

Otasi Tarag‘ay No‘yon turkiy barlos urug‘ining biyi (boshliq, oqsoqol)va yirik mulkdor amirlaridan edi. Hatto Amir Muhammad Tarag‘ay Chig‘atoy ulusining e‘tiborli beklaridan hisoblangan. U yilda bir marotaba Ili (Elsuvi) daryosi bo‘yida chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga taklif etilardi. Beklardan kelib chiqqanliklariga qaramay, Amir Temur otasining ham, bobosi Amir Barqulning ham harbiy ishga mayli bo‘lmagan. Tarag‘aybek taqvodor musulmon bo‘lib, ko‘p vaqtini darveshlar bilan birga o‘tkazgan. U piri tasavvuf shayxi Shamsiddin Kulolni chuqur ehtirom qilgan. Tarag‘ay no‘yonning to‘rt o‘g‘li va ikki qizi bor edi: o‘g‘illar – (Amir) Temur, Suyurg‘atmish, Olamshayx, Jo‘gi-no‘yon; qizlar – Qutlug‘ Turkon oqa, Shirinbeka oqa [4].

Onasi “poshsha, poshshaxon, sulton og‘o” ma‘nolarini anglatuvchi Takina Xotun (aslida Tegin, taxm.1318, Buxoro – 1353, Shahrisabz) Buxoro ulamolari peshvosi mavlono sadr ash-shari‘a, ya‘ni shariat qonunlarini sharhlovchi alloma Ubaydulloh al-Buxoriyning qizidir. Temurbekka ota- onasi va ajdodlaridan alplarga xos pahlavonlik, o‘tkir zehn, iste‘dod va boshqa irsiy fazilatlar meros tariqasida o‘tadi.

Temurbek dastlabki bilimlarini o‘z qishlog‘dagi mulla Alibek maktabida 5 yoshida ola boshlaydi. 10 yoshida Mulla Alibek maktabidagi barcha kitoblarni o‘qib tugatadi va ustozining tavsiyasi bilan Keshdagi Abdulla Qutb madrasasiga o‘qishga boradi. Madrasa mudarrisari Temurbekning o‘tkir zehniligini, turkiy tildan tashqari fors tilini tez o‘rganganligini, Qur‘on oyatlarini ikki-uch o‘qishdayoq yod olganligini ko‘rib hayron qoladilar. Manbalarda qayd etilishicha, u Qur‘on Karimni yod olgan, hadis ilmini chuqur o‘rganligi bois imon-e‘tiqodli, halol pok inson bo‘lib voyaga yetgan. Siyosiy hayotga kirib kelgan Temur din obro‘ e‘tiborini dunyoviy hokimiyatdan ustun qo‘ygan. U “ olijanob musulmon, olim va darveshlar do‘sti edi” [5].

Tarixiy manbalarda Amir Temurning to‘rtta piri bo‘lganligi qayd etiladi. Uning birinchi piri Shayx Shamsiddin Kulol al-Faxuriydir. Bu ulug‘ zot Amir Temurning otasi Amir Tarag‘ayning ham piri bo‘lgan. Uning ismini ham Shayx Shamsiddin Kulol qo‘ygan. Temur otasining do‘sti, naqshbandiya tariqatining taniqli vakili shayx Shamsiddin Kulol bilan bo‘lgan voqea tarixchilarga ma‘lum. O‘z muridlari davrasida zikr tushirayotgan shayx huzuriga kirib kelgan yosh Temur uning tugashini sabr ila kutib turadi. Shayx va atrofidagi muridlar uning xulqiga baho berib, duo qilishadiki, buni keyinchalik bo‘lajak jahongir go‘yo o‘z muvaffaqiyatlarining sabablaridan biri deb hisoblangan emish [6].

Amir Temurning ikkinchi piri Sayid Amir Kuloldir. U 1227 yilda Buxoro yaqinidagi Suxoriy qishlog‘ida tavallud topgan. Asli ismi Sayid Amir Kalon as-Suxoriy bo‘lib, kulolchilik va paxsa urish bilan shug‘ullangani uchun Kulol nomi bilan mashhurdir. Ul zot “Silsilai Sharif” bo‘yicha o‘n beshinchi piri murshid hisoblanadi. “Silsilai Sharif” bo‘yicha o‘n to‘rtinchi piri murshid sanalgan Bobo Samosiydan ta‘lim olgan. Bobo Samosiy Buxoroda xojagon tarikatini Abdulxoliq G‘ijduvoniyan keyin davom ettirgan ulug‘ zot sanaladi. Naqshbandiya tariqatining asoschisi sanalmish, Bahouddin Naqshband zikr talqini va odobini Sayid Amir Kuloldan olgan. Naql qilishlaricha Shayx Sayid Amir Kulol Temurga yetti kulcha uzatib shunday so‘zlarni aytgan ekanlar: “ Keshga borg‘oningda ushbu kulchalarni har biridan bir tishlamdan yeb, qolg‘onini saqlab qo‘yg‘il, kelajakda dunyoning yetti iqlimi seniki bo‘lg‘ay!” [7].

Makkai Mukarramaning ulug‘laridan ya‘ni Ka‘ba xojasi bilan belgilangan vaqflarning Xurosondagi noibi bo‘lgan Shayx Sayid Baraka Amir Temurning uchinchi piri sanaladi. U 1324-1404 yillarda yashagan. Sohibqiron hokimiyat uchun amir Husayn bilan kurash olib borayotgan bir pallada 1370 yilda Shayx Sayid Baraka Termiz yaqinida uchrashib, unga nog‘ora va bayroqni taqdim etadi. Amir Temur bu tufhalmi islom yo‘lidagi bo‘lajak zafarlarning muqaddimasi deb bilgan. Mana shundan so‘ng Shayx Sayid Barakani pir tutgan, uning bilan birgalikda barcha g‘alabalarining ilhomchisi sifatida qaraganini keksa tarix ma‘lumot beradi. 1404 yilda Shayx Sayid Barakaning o‘limining Amir Temurga ta‘sirini quyidagicha bayon etiladi:“...Qorabog‘da ulug‘ voqi‘alardan biri bu bo‘ladikim, Sayyid Barakaga/marazi voqi‘ bo‘lub, har nechakim tabiblar muolaja qildilar, muvofiq bo‘lmadi. Oqibat: Irja y ila Rabbiki raziyattan marziyatanni (Qur‘on. Fajr surasi 28 oyat)qabul qilib, bu saroyi foniyan olami boqiyg‘a mutavajjih bo‘ldi. Hazrat sohibqiron bu voqi‘a jihatidan asru mutvalam bo‘lib, yig‘ladi. Hukm bo‘ldi: “Sayyidning so‘ngakini Andxudg‘a eltib, amonot qo‘ysunlar” [3].

1405 yil Amir Temur vafot etgach “Hazrat sohibqironi poke‘tiqodqakim, asru ixlos va sidq hazrat Risolat, sall Allahu, alayhi va sallamning avlodig‘a bor erdi, doim xotirida ul erdikim, o‘lgondin so‘ng Sayyid Baraka alayhir rahmat var rizvonning oyog‘i sori bo‘lg‘ay. Necha kundan so‘ng Sayyidi mushori ilayhining muborak so‘ngagikim, Andaxudda amonot qo‘yib erdilar, alarni kelturub ul gumbazkim, sohibqironning xoli xatti bukun uchun yasab erdi, kelturub dafn qildilar. Va ul / hazratni nechukkim niyat qilib erdi, Sayyid mushori ilayhining ayog‘i sari ko‘mdilar” [3].

Payg‘ambar avlodlariga doimo mehr-muhabbat hislarini tuygan jahongir guyo uni Sayid Baraka qabri etagiga quyish istagini bildirgan. Temur vafotidan keyin Sayid Baraka qabri Andxoydan Samarqandga ko‘chirilgan, ikkovlan bir maqbarada Temurni o‘z istagiga binoan, Sayidning poyi tuprog‘iga qo‘yishgan [8].

Amir Temurning to‘rtinchi piri Shayx Zayniddin Abubakr at-Tayobodiydir. Ul zot 1291 yilda Hirotning Toyobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Fasix Havofiyning “Mujmali Fasixiy”asarida yozilishicha Amir Temur shayxulislom bilan 1381 yilda Harirud vodiysida uchrashadi. Sohibqiron Xurosonga yurishida Tayobod qishlog‘iga yo‘li tushadi. Amir Temur qaysi yurtga borsa, o‘sha yerdagi ulug‘ insonlarni yoniga chorlab hamsuhbat qilishni unutmagan. Toyobod qishlog‘ida mashhur shayx borligini eshitib uni huzuriga chorlaydi. Ammo shayx Temurda uning ishi yo‘qligini aytgandan so‘ng, lashkarboshilardan birini uning huzuriga yuboradi. Bu ham natija bermagach, piri komil oldiga o‘zi boradi. Shayx uni kutib oladi va yelkasiga qo‘lini qo‘yadi. Jismonan baquvvat bo‘lgan Temur ham, shayxning kuchiga tan berib shunday degan:” Agar shayx yana bir zamon qo‘lini yelkamdan olmaganida edi, men go‘yoki osmon ustimga tushib, og‘irlik tagida qolib pachoq bo‘layozganday edim”. Shundan so‘ng shayx uni uyiga taklif qilib, suhbatlashadi, pand-nasihat qiladi [3].

Ulug‘ hukmdor pirining maslahatlariga umrbod amal qildi va o‘z siyosatini amalga oshirishda, davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa, qilich bilan bajo keltirganligi buning isbotidir. Amir Temurning

mamlakat boshqaruvidagi eng qimmatli shiorlaridan biri "Davlat kufr bilan bardavom bo'lishi mumkin, ammo zulm bor joyda tanazzul muqarrardir", bu ifodaning asl muallifi Abu Bakr Tayobodiydir [9, 103].

Qisqasi, Amir Temurning pirlariga bo'lgan munosabatini Ibn Arabshoh sohibqiron tilidan quyidagicha bayon qiladi: "Qanchadan-qancha mamlakatlarni qo'lga kiritgan bo'lsam, qancha o'lkalarni fath etgan bo'lsam, barchasi shayx Shamsiddin Kulolning vositasi bilan, Amir Kulolning yordami va shayx Zayniddin Abu Bakrning homiyliги tufaylidir. Sayyid Barakaning yordami tegmasdan birorta g'alabaga erishmaganman"

Ma'lumki, o'rta asr sharoitida din ijtimoiy tashkilot vazifasini o'tagan. Chunki ruhoniy shaxs va so'fiylik tariqatlari vakillari faoliyati jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlanishning nozik va amaldagi shakli bo'lgan. Tarixiy manbalarda Temurning diniy safdoshlaridan aka-uka sayidlar-Abul Ma'aliy va Ali Akbar nomlari eslatib o'tilgan. Ular xudovanzoda unvoni bilan atalib, Termizga ega qilishgan. Termiz XV asrga qadar yirik diniy markazlardan biri sanalgan [6].

1371 yilda Temurga qarshi uyushtirilgan fitnada Abul Ma'aliy nomi eslatiladi. Temur sayidlarda bo'lmish Abul Ma'aliy nafaqat qatl qilmagan, balki ma'lum bir vaqt o'tgach kechirib yuborgan. Yoki 1365 yilda Samarqanddagi sarbadorlar qo'zg'olonining yetakchilaridan bo'lmish madrasa tolibi Mavlozodani sarbadorlar harakatida xasaniya so'fiylik izdoshlarining talabi va xalq ommasi orasidagi o'zining xalqchilik pozitsiyasiga munosabatini bildirish uchun uni avf etgan [10].

Amir Temur ma'lum vaqt o'z yoniga ruhoniylarni muloqatga chorlab turgan. Masalan, 1403-1404 yil qishida Movarounnahr-Kesh, Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa joylardan mo'tabar zotlarni yig'gan. Bu yerda Xovand zodagoni Termiziy, Samarqandlik shayx ul-islom Hoja Abd-al-Avval, Hoja Isom-ad-Din, va keshlik shayx ul-islom farzandlari Abu al-Hamiya va ar-Rahmon va bundan tashqari buxorolik shayxlar qatnashgan.

Xulosa va takliflar. Xullas, Temur davlat rahbari sifatida diniy omil ahamiyati va kuchiga munosib baho bergani holda, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy hayotida undan oqilona foydalana olgan. Islom dini ulamolariga katta hurmat-ehтиrom ko'rsatib xalqqa namuna bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-Таворихи Муиний. -Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.28.
2. Темур тузуклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.13-14.
3. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Б.80.
4. Ҳаким Сатторий. Олтин силсила. – Тошкент:Ўзбекистон, 2006. – Б.24-25.
5. Бартольд В.В. Улугбек и его время.- Записки Российской Академии наук, Серия VIII, Том XIII. -М., 1964. - С.39.
6. Темур ва Улугбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. – Б. 107.
7. Кичкилов Ҳ., Файзуллаева М. Пирлари қўллаган Соҳибқирон./ Мозийдан садо, 2006 йил, 20 апрел.
8. Бартольд В.В. О погребении Тимура.// Соч., Т.2., Ч.2, с.446.
9. Темурийлар даврида дин ва давлатнинг алоқаси, - Б. 103.
10. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Тимурадах. – Ленинград, 1933. – С.14.